

Dusmatov Nodir Muxtorovich,
*Vazirlar Mahkamasining Oila va xotin-qizlar
masalalari kotibiyati mudiri*



FALSAFADA OILA BARQARORLIGINING IJTIMOIY MOHIYATI

Annotatsiya. Oila jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim manbasi hisoblanadi, oilaviy nizolarni bartaraf etish, uning ma'naviy saviyasini mustahkamlash, asrab-avaylash, barqarorligini ta'minlash, oilada xotin-qizlarning rolini rivojlantirish hamisha dolzarb masalalardan bo'lib kelgan. Ushbu maqolada ham oila barqarorligining ijtimoiy mohiyati falsafiy jihatdan tahlilga tortilgan.

Аннотация. Семья считается важнейшим источником социально-экономического развития общества, устранение семейных конфликтов, укрепление ее духовного уровня, сохранение, стабильность, развитие роли женщины в семье всегда были актуальными вопросами. В данной статье социальная сущность стабильности семьи анализируется с философской точки зрения.

Annotation. The family is considered the most important source of socio-economic development of the society, elimination of family conflicts, strengthening of its spiritual level, preservation, stability, development of the role of women in the family have always been urgent issues. In this article, the social essence of family stability is analyzed from a philosophical point of view.

Tayanch so'zlar: oila, barqarorlik, xotin-qizlar, oilaviy qadriyatlar, oilaviy nizolar, ijtimoiylashish, ijtimoiy muammolar.

Ключевые слова: семья, стабильность, женщины, семейные ценности, семейные конфликты, социализация, социальные проблемы.

Key words: family, stability, women, family values, family conflicts, socialization, social problems.

Kirish. Mamlakatda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog'lig'ini saqlash, kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash,

***jazoni ijro etish
muassasasida
saqlanayotgan,
chet elga chiqib
ketgan, davlat
va jamoat
tashkilotlarida
hamda xususiy
sektorda mehnat
qilayotgan
xotin-qizlarni
ijtimoiy-iqtisodiy
jihatdan qo‘llab-
quvvatlash va
ularning qonuniy
manfaatlari
himoyasini yanada
kuchaytirish;***

gender tenglikni ta’minlash borasida olib borilayotgan islohotlarni tizimli davom ettirish, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-87-son Farmoni¹ qabul qilindi. Ushbu Farmonning ijrosini amalga oshirish yuzasidan respublikamizda bir qator ishlar amalga oshirildi. Xususan,

- xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish;

- gender tenglikka erishish, xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- xotin-qizlarning ta’lim olishlari uchun qo‘shimcha shart-sharoitlarni yaratish hamda ularni ilm-fan sohasiga keng jalb etish;

- xotin-qizlarning salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish choralari kuchaytirish;

- xotin-qizlar orasida tazyiq va zo‘ravonlikka uchrash hamda odam savdosi qurboni bo‘lish holatlarining oldini olish;

- jazoni ijro etish muassasasida saqlanayotgan, chet elga chiqib ketgan, davlat va jamoat tashkilotlarida hamda xususiy sektorda mehnat qilayotgan xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash va ularning qonuniy manfaatlari himoyasini yanada kuchaytirish;

- ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash choralari yanada takomillashtirish;

- nuroniy onaxonlarni e’zozlash, ularning bilim va boy hayotiy tajribasidan oilalarni mustahkamlash, qizlarning ta’lim-tarbiyasi, ma’naviy dunyoqarashini yuksaltirishda foydalanish, shuningdek, ularning madaniy hordiq chiqarishlari uchun shart-sharoitlarni yaratish;

- oila institutini mustahkamlash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni targ‘ib etish orqali oilalardagi sog‘lom va ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash;

- xotin-qizlar orasida jinoyatchilik hamda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, ularda huquqiy madaniyat va mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarga daxldorlik hissini oshirish choralari ko‘rish² vazifalari belgilab olindi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Оила ва хотин-қизларни тизimli қўллаб-қувватлашга доир ишларни янада жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2022 йил 7 мартдаги ПФ–87-сон Фармони <https://lex.uz/docs/5899498>

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Оила ва хотин-қизларни тизimli қўллаб-қувватлашга доир ишларни янада жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2022 йил 7 мартдаги ПФ–87-сон Фармони

Maqsad va uni asoslash. Oila jamiyatning asosiy negizi hisoblanib, jamiyat rivojining poydevoridir. Binobarin, olimlarning necha asrlar avval oila mustahkamligi jamiyat poydevori ekanligi xususidagi qarashlari bejizga emas. Shu o'rinda oila institutini o'rganish sohasida mumtoz ijtimoiy-falsafiy merosni qisqacha ko'rib chiqish ba'zi xulosalar chiqarish imkonini beradi. Jumladan, I.Y.Baxofenning tadqiqotlaridan boshlab J.Maklennan, L.Morgan, O.Kont, E.Dyurkgeym va M.Veber bilan yakunlangan klassik ijtimoiy falsafa oilani tarkibiy va funksional o'zgarishlarga duchor bo'lgan tarixiy kategoriya sifatida izohlaydi.

Kontning ijtimoiy falsafasida oilaga universal sotsiologik element sifatida qaralgan. Unga ko'ra, jamiyat oilalardan tarkib topadi. Oilaning eng muhim vazifasi avlodlar davomiyligini ta'minlashdir.

Dyurkgeym Kontning pozitivistik g'oyalarini davom ettirib, oilani umuminsoniy tabiiy tartiblarga kiritadi. Bunda ijtimoiy hamjihatlik tizimida oilaning o'rni katta³.

Bundan kelib chiqadiki, oila – umuminsoniy qadriyatlar shakllanadigan maskan. Demak, klassik ijtimoiy falsafada ijtimoiylashuv jarayonida oilaning mavqeyi yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Oila – qarindoshlik, nikoh yoki farzand asrab olish rishtalari bilan birlashgan, yagona xo'jalikni boshqaradigan, o'zlari bajaradigan muayyan ijtimoiy rollar asosida bir-biri bilan muloqot qiladigan, umumiy madaniyatni yaratuvchi va saqlaydigan o'zaro bog'langan kishilar guruhi.⁴

Shu bilan birga, oilaning pozitivistik konsepsiyasi marksistik falsafa tomonidan taklif qilingan oilaning materialistik nazariyasiga juda mos keladi. Oila ijtimoiy mohiyatining marksistik talqinini qayta qurish zamonaviy ijtimoiy-falsafiy fanning muhim vazifasidir.

Oila mohiyatini marksizm tomonidan ishlab chiqilgan materialistik tushunish jahon ijtimoiy-falsafiy faniga XIX asrning o'rtalaridayoq kirib keldi.

Ijtimoiy falsafa va sotsiologiyaga oid barcha mahalliy darsliklarga kiritilgan oila ta'rifini K.Marks va F.Engels "German mafkurasi" qo'shma asarida bergan: "Oila er va xotin, ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlardir"⁵.

Oilaga materialistik qarashni rivojlantirib, F.Engels o'zining mashhur "Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi" asarida oilani tarixning eng muhim o'rganish kerak bo'lgan bo'g'ini ekanligini ta'kidlaydi⁶. Bir tomondan, hayot vositalarini ishlab chiqarish: oziq-

***Oila –
qarindoshlik, nikoh
yoki farzand asrab
olish rishtalari
bilan birlashgan,
yagona xo'jalikni
boshqaradigan,
o'zlari bajaradigan
muayyan ijtimoiy
rollar asosida bir-
biri bilan muloqot
qiladigan, umumiy
madaniyatni
yaratuvchi va
saqlaydigan
o'zaro bog'langan
kishilar guruhi.***

³ Конт О. Дух позитивной философии. – СПб, 2001. – 146 с.

⁴ Rice F. Intimate Relationships, Marriage, and Families. – L., 1993. – P. 3-4.

⁵ Черняк Е.М. Указ. соч. – С. 15.

⁶ Энгельс Ф. Происхождение семьи, частной собственности и государства. Указ. соч. – 238 с.

Oilada odamlarning o'tmishdagi avlodlarga bog'liqligini tushunishni rivojlantirishi kerak. Inson o'z tarixiy ildizlari yo'q deb o'ylamasligi juda muhim, chunki uning orqasida ajdodlari hayotining butun zanjiri bor. Oilada ijtimoiylashuvning asosini ijtimoiy instinktini rivojlantiruvchi, har bir oilani jamiyatning aloqadorligini his ettiruvchi va mehnatning ijtimoiy hamkorligida amalga oshiruvchi, ijtimoiy birdamlikni ta'minlaydigan muhit tashkil etadi.

ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va boshqalar, boshqa tomondan, shaxslar ijtimoiylashuvi kabi hodisalar, avvalo, oilada kechadi. Ko'rinadiki, oila butunligi va to'kisligi masalalari barcha davrlarda oila yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda uchraydi. Ushbu masala, avvalo, oila a'zolarining barchasiga bog'liq masala hisoblanadi. Shuning uchun ham, har bir ila a'zosi oila mustahkamligiga va o'zaro oilaviy munosabatlar ijobiy kechishiga mas'ullikni his etgan holda harakat qilishlari kerak.

Falsafa klassiklarining oila haqidagi qarashlarini tahlil qilish oila barqarorligi muammosini ilmiy tahlil qilishning zaruriy tarixnavislik shartidir. Biroq bu masala bo'yicha zamonaviy tadqiqotchilarning qarashlarini ham ko'zdan kechirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ijtimoiy-falsafiy tafakkurning eng ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri o'z asarida oila masalalariga to'xtalib o'tgan Ovgust Kontdir. U oilani ijtimoiy statika nuqtayi nazaridan universal umuminsoniy hodisa deb hisobladi. Uning aytishicha, oila haqiqiy sotsiologik elementdir. Jamiyat oilalar majmuyidan shakllanadi. Insoniyat oila, qabila, millatdan tortib, davlatga qadar ketma-ket tarixiy bosqichlarni bosib o'tdi⁷.

I.Kat va I.G.Fixtelar er va xotin oilaviy munosabatlari siyosiy, ijtimoiy va yuridik jihatdan rasmiylashtirgan bo'lishi kerak deb hisoblaydilar: bu holatlar, ya'ni er va xotin o'rtasidagi munosabatlar har doim ham barqaror siyosiy, ijtimoiy va yuridik xarakterga emas, balki ko'pincha tabiiy va axloqiy xarakterga ega bo'lishini ular e'tiborga olmaslikka harakat qiladilar.⁸

Oilada instinktiv, hissiy bog'lanishlarga asoslangan ittifoqdir. Bu ijtimoiy hayot maktabi bo'lib, unda shaxs itoat etish va boshqarishni, boshqalar bilan va boshqalar uchun hamjihatlikda yashashni o'rganadi.

Oilaning eng muhim vazifasi jamiyatda ijtimoiy uzluksizlikni ta'minlaydigan an'analarni kelajak avlodga yetkazishdir. Oila tufayli o'tmish bugun va kelajak bilan bog'liq.

Oilada odamlarning o'tmishdagi avlodlarga bog'liqligini tushunishni rivojlantirishi kerak. Inson o'z tarixiy ildizlari yo'q deb o'ylamasligi juda muhim, chunki uning orqasida ajdodlari hayotining butun zanjiri bor. Oilada ijtimoiylashuvning asosini ijtimoiy instinktini rivojlantiruvchi, har bir oilani jamiyatning aloqadorligini his ettiruvchi va mehnatning ijtimoiy hamkorligida amalga oshiruvchi, ijtimoiy birdamlikni ta'minlaydigan muhit tashkil etadi. Oila ijtimoiy iyerarxiya va bo'ysunishning o'zgarmas qonuniga bo'ysunadi: ayol undagi erkakka, kichik va kattaga bo'ysunishi kerak.

⁷ Конт О. Дух позитивной философии. — СПб, 2001. — 146 с.

⁸ Цатурова М.К. Русское семейное право XVI-XVIII в.в. — М., 2012. — С.5.

Kont xususiy mulk va mulkni meros qilib olish huquqi tarafdori edi. Shu bilan birga, mulk ijtimoiy xususiyatga ega. Mulk egasi bo'lgan oila uni qanday tasarruf etishi uchun jamiyat oldida javobgardir. Kont mulkni ijtimoiylashtirishning qat'iy raqibi bo'lib, oilani mulkning asosiy saqllovchisi deb hisobladi: jamiyatda tirik organizmda bo'lgani kabi barcha qismlar bir-biri bilan muvofiqlashtirilgan.

Oila ijtimoiy hayotning barcha sohalari bilan uzviy bog'liqdir. Zero, oila jamiyatning eng asosiy ijtimoiy elementidir. Oila ijtimoiy dinamika tizimiga kiradi, chunki u doimiy o'zgarish va rivojlanishda bo'ladi. Insoniyat tartibining asosiy qonuni avlodlarning o'zgarishi va davomiyligidir.

Jamiyatning normal rivojlanishi bilan bir qator avlodlar to'plangan moddiy va ma'naviy boyliklarni boshqalarga o'tkazadilar. Har bir yangi avlod avvalgilariga qaraganda ko'proq moddiy va ma'naviy salohiyatga ega bo'lishi kerak, shunda insoniyatning normal progressiv rivojlanishi ta'minlanadi.

Shunday qilib, oila oldingi avlodlar an'alarini yetkazish funksiyalarini o'z zimmasiga olgan holda taraqqiyotning eng muhim ijtimoiy mexanizmini ta'minlaydi.

Oila insonlarning ijtimoiylashish maskanidir. Oila ichidagi moddiy boyliklarni taqsimlashda uning a'zolari o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi yuzaga keladi. Nizolar nazariyasiga ko'ra, oila pul mablag'larini qayta taqsimlash, shu jumladan, uy ishlarini olib borish va bolalarni tarbiyalash uchun mojarolar yuzaga keladigan jang maydoniga aylanadi. Konfliktologik nazariyalar vakillarining fikricha, konflikt integratsiyaning teskari, muqarrar tomonidir. Mojarolardan qochish mumkin emas. Tizimni buzmaslik uchun mojaroni hal qilish kerak. Oilaviy nizolarni to'g'ri hal qilish qobiliyati oila ittifoqining hayotiyligi ko'rsatkichidir. Aks holda, nizolar oiladagi barqarorlikni buzadi va turmush o'rtoqlarning ajralishiga olib keladi. Ajralish sabablari keyinroq muhokama qilinadi.

Oila nizolar muvozanati orqali o'zini ko'paytiradi. Konfliktlar nazariyasi oiladagi hokimiyat muammosini ijtimoiy falsafaga kiritib, qaror qabul qilish mexanizmiga urg'u berdi. Oilada hokimiyat mexanizmlarini tahlil qilish E.Fromm tomonidan ishlab chiqilgan avtoritar shaxsiyat konsepsiyasiga asoslanadi. E.Frommning fikricha, avtoritar shaxsning paydo bo'lishi patriarxal oilaviy munosabatlarning yemirilishi va zamonaviy davlatning urbanizatsiyasi bilan bog'liq⁹.

Oilaviy nizolarning mohiyatini o'rganish oilani o'rganishda gender tadqiqotlariga e'tibor berishni taqozo etadi. Sababi oilaviy nizolar har ikkala tomonning ham munosabatga kirishishi asosida kelib chiqadi.

Jamiyatning normal rivojlanishi bilan bir qator avlodlar to'plangan moddiy va ma'naviy boyliklarni boshqalarga o'tkazadilar. Har bir yangi avlod avvalgilariga qaraganda ko'proq moddiy va ma'naviy salohiyatga ega bo'lishi kerak, shunda insoniyatning normal progressiv rivojlanishi ta'minlanadi.

⁹ Фромм Э. Бегство от свободы. – Минск, 2000. – 672 с.

Oilalarning barqaror turmush kechirishi uchun, albatta, er-xotin yoki boshqa oila a'zolarining o'zaro kelishib, tushunib yashashi kerak bo'ladi.

Oilada shaxsning qirralari aniqlanadi, uning ichki dunyosi rivojlanadi, jamiyat madaniyatiga bosqichma-bosqich kirib boradi. Inson oilada ong va xarakter asoslarini oladi, bu yerda uning qarashlari va munosabatlari, axloqiy va irodaviy fazilatlari, jamiyat oldidagi burchlari, dunyoqarashi, e'tiqodi va ijtimoiy yo'nalishi haqida tushunchalar shakllanadi.

Yakuniy qism. Xulosa qilib aytganda, oiladan oldingi davrni tahlil qilish ham muhimdir, chunki bu yerda oilani yaratish motivlari shakllanadi, bu uning barqarorligiga bevosita ta'sir qiladi, chunki oilaviy munosabatlardan qoniqish darajasi va ularni yaratish motivlari o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud.

Oila barqarorligining ijtimoiy-falsafiy tahlili natijalarini oiladan oldingi munosabatlarga prognoz qilish nafaqat oilaviy munosabatlarning barqarorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni izlash ko'lamini kengaytiradi, balki kelajakdagi turmush o'rtoqlarning motivatsiyasi haqidagi tushunchani ham boyitadi. Shu munosabat bilan, oiladan oldingi motivatsiyaning o'ziga xosligi ham ochib beriladi, bu oila barqarorligining belgilangan mezonlariga asoslanib, turli yo'naltirilgan subyektiv maqsadlarning kombinatsiyasi tufayli ishlaydigan tizim sifatida belgilanishi mumkin. Bu kombinatsiya oila subyektlarining qadriyat munosabatlarini so'zsiz o'zaro inkor etishni va ularning birbiridan insoniyat jamiyatining asosiy tamoyillariga zid bo'lgan har qanday maqsadlarga erishish vositasi sifatida foydalanishni istisno qiladi. Shunday qilib, oiladan oldingi davrda oilaviy munosabatlar subyektlari o'rtasida aniq va barqaror ma'naviy motivatsiya mavjud bo'lganda, oilaning keyingi bosqichlarining barqaror rivojlanishi haqida gapirish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 7-martdagi PF-87-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5899498>
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. B harfi. https://www.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20%20B.pdf
3. Rice F. *Intimate Relationships, Marriage, and Families*. – L., 1993. – P.3-4.
4. Черняк Е.М. Указ. соч. – С. 15.
5. Энгелс Ф. *Происхождение семьи, частной собственности и государства* Указ. соч. – 238 с.
6. Конт О. *Дух позитивной философии*. – СПб, 2001. – 146 с.
7. Фромм Э. *Бегство от свободы*. – Минск, 2000. – 672 с.